SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI





# SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR-AVGUST*
*(DASTLABKI MA'LUMOT)*



# Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-avgust oylarida)*

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 17 271,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 95,9 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan sanoat– 9,3 %, o‘sishi kuzatildi.*

*Shuningdek, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning– 14,8 % ga , Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 45,4 % ga hamda Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish – 14,3 % ga pasayish kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**Yanvar-Iyul**

**2022- yil**
**180,3 mlrd. so‘m**

**2022- yil**
**54,6 %**

**2021- yil**
**123,4 mlrd. so‘m**

**2021- yil**
**77,5 %**

**B**

**2020- yil**
**76,3 mlrd. so‘m**

**2020- yil**
**86,8 %**

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-avgustoylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 180,3 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini tashkil etdi.*

## Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

**2021- yil**
B
**0,9 %**

**2022- yil**
B
**1,0%**

**Yanvar-Iyul**

## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16 570,4 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,9 % ini tashkil etdi.*

**2021-yil yanvar-avgust** — **95,2 %**

**2022-yil yanvar-avgust** — **95,9 %**

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 % ni (2021- yilning yanvar-avgust oylarida – 0,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 16,0 % (17,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 19,8 % (16,2 %) va quyi texnologiyalisi – 59,4 % (61,3 %)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,1 % (2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 95,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 11,9 % (2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 143,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 21,2 % (2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 87,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 38,8 % (2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 116,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,2 % (2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 108,5 %) ni tashkil etdi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

*O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

**Aroq**




**O'simlik yog'i (tozalangan)**




**Paxta tolasi**




**Tamaki**




**Pivo**




**Yumshoq bug'doy va spelta uni**



*2022- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda Aroq – 40,3 ming litr 100 % spirt (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 19,6 % ga pasaygan), 106,7 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (8,1 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust | 2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan o‘sish, % da |
|---|---|---|---|
| Paxta tolasi, ming tonna. | 26,0 | 27,1 | 104,4 |
| Pivo, ming litr | 22101,0 | 21853,0 | 98,9 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming tonna | 116,1 | 106,6 | 91,9 |
| Tozalangan paxta yog’I tonna | 8511 | 10226 | 120,2 |
| Коnyak spirti – litr 100 % spirt | 509,9 | 251,0 | 49,2 |
| Tamaki, mln dona | 5189,0 | 6084,1 | 117,2 |
| Birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni og‘irligi 600 g (buxanka), tonna. | 366,3 | 408,0 | 111,4 |
| Paxta tiviti tonna | 2268,3 | 3247,2 | 143,2 |

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida metallurgiya sanoati ulushi 8,0 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 200,0 % ni tashkil etgan bo'lsa,*
*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 11,9 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 143,0 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 969,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.*

| | |
|---|---|
| **2020- yil** | **72,2 %** |
| **2021- yil** | **200,0 %** |
| **2022- yil** | **143,0 %** |

## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

| | |
|---|---|
| **2020- yil** | **83,8 %** |
| **2021- yil** | **83,0 %** |
| **2022- yil** | **93,1 %** |

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 1,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 83,0 % ni tashkil etgan bo'lsa,*
*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 93,1 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 376,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,6 % ni tashkil etgan bo'lsa,*
*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 104,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 4 565,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.*

| | |
|---|---|
| **2020- yil** | **82,7 %** |
| **2021- yil** | **102,6 %** |
| **2022- yil** | **104,9 %** |

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 112,2 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 83,9 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 2 925,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Kiyim ishlab chiqarish sanoati




*2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 151,2 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 %, fizik hajm indeksi 101,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 438,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 35,2 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 76,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 163,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 407,0 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,4 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 114,8 % ni tashkil etdi.




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 290062,7 | 299703,8 | 9641,1 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 4213168 | 4275113 | 61945 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 99,0 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 26 901,8 | 25 482,2 | -1 419,6 |
| **Plastmassa chiqindilari, tonna** | 301,1 | 548,8 | 247,7 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mlrd.so‘m** | 67,0 | 66,4 | - 0,6 |

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 99,1 % ni va O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar – 5,3 (%.) ga kamayganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10 356,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 120,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 60,0 % ni tashkil etdi.*

### Oziq-ovqat mahsulotlari

**2021- yil yanvar-avgust** — **38,7%**

**2022- yil yanvar-avgust** — **36,6%**

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

**2021- yil yanvar-avgust** — **61,3%**

**2022- yil yanvar-avgust** — **63,4%**

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,3 % (2021- yil yanvar-avgust oylarida 1,5 %)ni tashkil etdi.*

*Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib 41,1 % ni, Tayloq tumani 11,4 % ni, Urgut tumani 10,8 % ni, Samarqand tumani 8,4 % ni, hamda Jomboy tumani 7,8 % ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (120,6 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Paxtachi tumanida (158,2 %) hamda Tayloq tumanida (194,0 %) qayd etildi.*

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib 41,1 % shuningdek, Tayloq 11,4 %, Urgut 10,8 % ni, Samarqand tumanlarida 8,4 % ni tashkil etdi.*




**6 559,0** *mlrd. so‘m*

*2020- yil yanvar-avgust*

**8 087,6** *mlrd. so‘m*

*2021- yil yanvar-avgust*

**10 356,6** *mlrd. so‘m*

*2022- yil yanvar-avgust*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2020-yil** — **100,5%**

**2021- yil** — **107,9%**

**2022 yil** — **120,6 %**

## Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 45,9 % shuningdek, tumanlardan Urgut 15,1 %, Tayloq 11,4 % ni, hamda Samarqand tumani 4,2 % ni tashkil etdi.*

**2 701,3** *mlrd. so‘m*
*2020- yil yanvar-avgust*

**4 954,8** *mlrd. so‘m*
*2021- yil yanvar-avgust*

**6 565,5** *mlrd. so‘m*
*2022- yil yanvar-avgust*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2020- yil 85,1 %

02 2021- yil 105,0 %

03 2022- yil 121,2 %



## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 32,6 % ni, shuningdek, Samarqand tumani 16,1 % ni, Jomboy tumani 15,4 % ni, Tayloq tumani esa 11,3 % ni tashkil etdi.*




***1 655,4*** *mlrd. so‘m*

*2020- yil yanvar-avgust*

***3 014,7*** *mlrd. so‘m*

*2021- yil yanvar-avgust*

***3 114,4*** *mlrd. so‘m*

*2022- yil yanvar-avgust*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

01 — 2020- yil — 90,1 %

02 — 2021- yil — 114,5 %

04 — 2022- yil — 120,2%

## Samarqand viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 47,7 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 10,2 % ni, Urgut tumani esa 7,6 % ni tashkil etdi.*

### Samarqand viloyati

**2020- yil**
10 238,3 mlrd. so'm

**2021 yil**
13 171,8 mlrd. so'm

**2022- yil**
17 271,8 mlrd. so'm



**2020- yil** — 90,5 %

**2021- yil** — 109,2 %

**2022- yil** — 108,6 %

| | FHI, % da | mlrd. so'm |
|---|---|---|
| Kattaqo'rg'on sh. | 98,9 | 222,4 |
| Samarqand sh. | 109,9 | 8 345,6 |
| Toyloq | 118,5 | 1 392,4 |
| Urgut | 105,4 | 1 305,0 |
| Nurobod | 123,9 | 258,4 |
| Samarqand | 100,2 | 1 143,8 |
| Paxtachi | 113,5 | 296,5 |
| Pastdarg'om | 109,0 | 603,9 |
| Payariq | 98,7 | 280,4 |
| Narpay | 103,2 | 388,3 |
| Qo'shrabot | 102,0 | 52,0 |
| Kattaqo'rg'on | 102,8 | 348,5 |
| Ishtixon | 102,4 | 297,9 |
| Jomboy | 105,1 | 1 755,3 |
| Bulung'ur | 110,7 | 384,9 |
| Oqdaryo | 98,4 | 296,3 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 351,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 36,8 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulung'ur tumanida (100,0 %), Qo'shrobot tumanida (100,0 %), Kattaqo'rg'on shahrida (96,3 %), Oqdaryo tumanida (95,1 %), Kattaqo'rg'on tumanida (80,8 %) tashkil etdi.




*Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Narpay tumanida(15,6 %), Paxtachi (30,8 %), Ishtixon (41,1 %), Tayloq (29,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.*

## Samarqand vloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*Bugungi kunda viloyatimizda 8 576 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1 792 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 20,9 %) Samarqand shahriga, 1 243 tasi (14,5 %) Urgut tumaniga, 774 tasi (9,0 %) Samarqand tumani hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.*




### Jami yangi tashkil etilgan

**2020-yil** — 1087 dona

**2021- yil** — 1 443 dona

**2022- yil** — 1 196 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

**2020- yil** — 6 581 dona

**2021- yil** — 8 060 dona

**2022- yil** — 8 576 dona